

ATROF - MUHITNI ASRASHNING MINTAQALARARO MASALALARI: OROL MUAMMOSI

Jo'rayev Behro'z Panji o'g'li

Termiz davlat universiteti talabasi.

Nomozov Xusan Axmat o'g'li

TerDU Yuridik fakulteti "Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi" kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14674700>

Annotatsiya. Hozirgi kunda yer yuzidagi har bir davlatda atrof-muhitni himoya qilish, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolada atrof-muhitni asrash masalalari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadigan Orol dengizi va uning qurishi sabablari hamda bundan kelib chiquvchi muammolarni bartaraf etishda olib borilayotgan ishlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, UNEP, ekologik fojia, rezolyutsiya, suv resurslari, Orolqum, OQXJ, yashil belbog', „yashil“ iqtisodiyot.

МЕЖРЕГИОНАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ: ПРОБЛЕМА ОСТРОВОВ

Аннотация. В настоящее время охрана окружающей среды, рациональное использование воды и других природных ресурсов остается одним из актуальных вопросов в каждой стране мира. Помимо вопросов охраны окружающей среды, в данной статье говорится об Аральском море, имеющем большое значение для стран Центральной Азии, и причинах его высыхания, а также о работе, проводимой по устранению возникающих из-за него проблем.

Ключевые слова: Окружающая среда, ЮНЕП, экологическая трагедия, разрешение проблемы, водные ресурсы, Оролкум, МККК, зеленый пояс, «зеленая» экономика.

INTERREGIONAL ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION: THE ISLAND PROBLEM

Abstract. Currently, the preserving of the environment, utilizing water and other natural resources remains one of the topical issues in each state on the Earth. In this article, along with the preservation of natural environment, it is discussed about the Aral Sea and the reasons of its dryness, as well as the work done in the elimination of issues arising.

Keywords: Environment, UNEP, Environment Facial, Resolution, Water Resources, Aral Sea, Green Belbush, “Green” economy.

KIRISH. Atrof-muhit – bu har bir tirik mavjudot uchun eng ahamiyatli narsadir. Biz olgan har nafas, iste'mol qilayotgan har bir ne'mat, suv havzalari, o'rmon-u tog'lar bizni qurshab turgan tabiat, atrof-muhitni tashkil etadi. Lekin so'ngi yillarda turli xil sabablarga ko'ra tabiatga katta zararlar yetmoqda hamda atrof-muhitda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu esa yer yuzidagi har bir mamlakat aholisining sog'ligi, davlatlarning iqtisodiy o'sishi va qishloq xo'jaligi kabi ko'plab sohalarga jiddiy ta'sir etmoqda. Bugun tabiatni muhofaza qilish faqat tabiiy masala bo'lib qolmay, balki ijtimoiy masala hamdir. Shu jumladan, tabiatni muhofaza qilish masalasini o'rganishda nafaqat yuqoridagi fanlarning, balki boshqa, jumladan kimyo, fizika, astronomiya, matematika, pedagogika, psixologiya, hattoki, huquq fanlarining ham roli ulkan bo'lmog'i lozim.

Ushbu muammo kelajakda yanada yomonroq oqibatlarga olib kelishining oldini olish maqsadida xalqaro tashkilotlar, davlatlar o'rtasida kelishuvlar, konvensiyalar o'tkazilib, ular doirasida amaliy choralar ko'rishga harakat qilinmoqda.

Tabiiy ofatlar, atrof-muhitning ifloslanishi va butun tur va ekotizimlarning yo'q qilinishi e'tiborga olinishi kerak bo'lgan haqiqatdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ushbu dolzarb masalalarni 193 ta a'zo davlatlar va barcha sohalardan manfaatdor tomonlar bilan yaqinda ishlash uchun samarali, uzoq muddatli echimlarni topish va amalga oshirishga bag'ishlangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jenevadagi bir nechta agentliklari ekologik muammolarni hal qilish, atrof-muhit siyosatini shakllantirish kabi sohalar bo'yicha ishlash, ilmiy-tadqiqot va ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqarish, tizim va iqlimga moslashtirishga sarmoya kiritishva boshqa ekologik muammolarni hal qilishga bag'ishlangan dasturlarni yaratdilar. Tadqiqot va fuqarolik jamiyati bo'yicha sheriklar bilan birgalikda ular turli xo'jaliklar xalqaro atrof-muhitni boshqarishni o'zgartirish uchun o'z kuchlarini birlashtiradigan Jeneva atrof-muhit tarmog'ini tashkil etdilar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit dasturi (UNEP) - bu BMT tizimida atrof-muhitni muhofaza qilishning kuchli himoyachisi fuqarolarining har kuni hayotida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha maslahat berish bo'yicha dasturdir. Shu maqsadda UNEPning Jenevadagi idorasi, u xizmat qiladigan hukumatlar bilan doimiy almashinuvda faoliyat yuritadi.

UNEP mamlakatimiz, mintaqaviy va global miqyosdagi ekologik majburiyatlarni amalga oshirishda yordam beradigan ekologik standartlar va amaliyotni kuchaytirish uchun o'z tajribasidan foydalanadi.¹

Keyingi yillarda O'zbekiston global muammolarning xalqaro miqyosda hal etilishi jarayonida faol ishtirok etmoqda. Mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikdir. Xalqaro hamkorlik esa asosan Orol hamda Orolbo'yi hududlaridagi ekologik holatni yaxshilash, hayvonot va o'simlik turlarining yo'qolib ketish oldidini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish doirasida olib borilmoqda. BMT Bosh Assambleyasi sessiyalaridagi tashabbuslarimizning qisqacha xronikasi shundan dalolat beradi.

Shu bilan birga, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasi yig'ilishida ilk bor so'zga chiqib, yangi rahbariyatning maqsadlari mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirishga, inson huquqlari himoyasini mustahkamlashga, iqtisodiy islohotlarga va Markaziy Osiyo mamlakatlariga ustuvor ahamiyat qaratishga yo'naltirilganini ta'kidlagan edi. Shuningdek, BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklif qilinib, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini o'tkazish tashabbusi ilgari surilgandi. O'shanda tarixda birinchi bor, BMT oliy minbarida Prezidentimiz Orol dengizining xaritasini butun jahon hamjamiyatiga ko'rsatib, muammoning nechog'li chuqur va naqadar murakkab ekanligini kuyunchaklik bilan ochib bergan edilar. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida Orolbo'yi hududidagi ekologik fojियaga butun jahon hamjamiyatini e'tiborini qaratgan edi:

“Davrimizning o'tkir muammolaridan yana biri – global iqlim o'zgarishlaridir. Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda. Biz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz.

Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq bo'lardi...”²

¹ <https://www.ungeneva.org/en/about/topics/environment>

² [Orol muammosi, olam muammosi...](#)

Yaqin yillar ichida nafaqat O'zbekiston, balki boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarining ekologik holatida jiddiy ta'sir etayotgan muammo – Orol muammosidir. Orol dengizi muammosi Markaziy Osiyodagi eng yirik ekologik muammolardan biri bo'lib, butun mintaqaning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bu muammo, asosan, inson faoliyati va noto'g'ri boshqaruv natijasida yuzaga kelgan bo'lib, so'nggi o'n yilliklarda dengizning qurishi jiddiy oqibatlariga olib kelmoqda. Dastlab, Orol dengizining qurish sabablariga to'xtalsak:

1. Sug'orish tizimlari ortib ketishi. 20-asrning o'rtalaridan boshlab, Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun haddan tashqari foydalanish boshlandi. Bu, o'z navbatida, dengizga yetib boradigan suv hajmining keskin kamayishiga olib keldi.

2. Suv resurslarining noto'g'ri boshqaruvi. Sovet Ittifoqi davrida mintaqaviy suv resurslarini boshqarish bo'yicha yagona strategiya yo'q edi. Bu, mintaqalararo kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi.

3. Tabiiy sharoitlar. Orol dengizi asosan ichki havzada joylashgan va berk dengiz bo'lib, suvning bug'lanishi ko'p, ammo to'yilish manbalari cheklangan. Ushbu uchta asosiy sabab Orol dengizining hozirgi holatga kelishiga, turli ekologik muammolarni keltirib chiqargan. Bu esa Orol dengizining maydoni 1960-yillardan beri 90% ga kichrayishiga olib kelish bilan bir qatorda, hududda cho'llanish jarayoni avj oldi, yangi "Orolqum" cho'li paydo bo'ldi. Tuz va kimyoviy moddalar shamol orqali minglab kilometr masofaga tarqalib, aholi sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatib, tuproq va havoni ifloslantirmoqda. Orolbo'yi hududlarida yashovchi aholining asosiy daromad manbasi bo'lgan baliqchilik sanoati ham yo'q bo'ldi.

Ayni paytda Orol dengizi deyarli qurib bo'lgan, bu fojia natijasida, ayniqsa, O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston hududidagi ekologik vaziyat jiddiy yomonlashdi. So'nggi yillarda suv tanqisligi bilan to'qnashayotgan mintaqada ekologik muammolar miqyosi kengaygan bo'lib, suv resurslarini huquqiy muhofaza qilishni talab etadi. Bu holat mintaqadan muvofiqlashgan hamkorlikni talab etayotgani ta'kidlanadi. 2013-yilda Minskda MDHga a'zo davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi yangi bitimiqabul qilinib, uning 4-moddasida hamkorlikni ta'minlashni amalga oshirish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish

sohasida Kengashning asosiy vazifalaridan biri atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi mavjud qarorlarni ijrosini ta'minlash va muvofiqlashtirishga ko'maklashishdan iborat deya belgilangan.³

Orol dengizini muhofaza qilishda mintaqalararo hamkorlik ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. 1993-yil 4-yanvarda Markaziy Osiyoning beshta davlati Toshkentda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasini (OQXJ) tashkil etish to'g'risida tarixiy qaror qabul qildi va bu qaror 1993-yil 26-martda Qizilo'rda shahrida tasdiqlandi. 2008-yilda OQXJ BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomiga ega bo'ldi va bu xalqaro tashkilotni Orol dengizi mintaqasi bo'yicha bir qator rezolutsiyalarni qabul qilishga undadi.⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 2023-yil 15-sentyabr kuni Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi. Bundan tashqari, 2017-2021-yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi, shuningdek Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan Orol dengizi havzasi va Orolbo'yi mintaqasida, unga yondosh Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida "yashil belbog'" yaratish bo'yicha tizimli ishlar olib borildi. "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaliklar tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori esa bu maqsadlarni strategik ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Endilikda Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondi faoliyatini kuchaytirish nihoyatda dolzarbdir. O'zi trast fondlar boshqaruv tuzilmasi qarorlar qabul qilish, mablag'larni taqsimlash va hisobdorlik jarayonlaridagi aniqlik va tartiblilik bilan ajralib turadi. Butun dunyo miqyosidagi 50dan ortiq BMTning bu kabi fondlari o'zining shaffoflik tamoyillari bilan ham g'oyatda samarali ekanligini ko'rsatmoqda.⁵

Orol muammosi mintaqalararo masala sifatida Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikda harakat qilishini talab qiladi. Bu muammoni hal etish faqat ekologik masalalar bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni ham o'z ichiga oladi. Uzlüksiz xalqaro qo'llab-quvvatlash va mahalliy tashabbuslar bilan Orolbo'yi hududining ekologik va iqtisodiy barqarorligini tiklash mumkin. Mamlakatimizda atrof muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda aholi o'rtasida tabiatga nisbatan do'stona munosabat ruhini kuchaytirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, uch yil avval "Yashil makon" umummilliy loyihasi boshlanib, qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim

³ Ekologiya huquqi. O'quv qo'llanma. H.I.To'xtashev. – T.: TDYU nashriyoti. "Lesson Press" nashriyoti, 2022-y. – 372-b

⁴ <https://senat.uz/post/post-1303>

⁵ [Orol muammosi – global muammo](#)- old.uwed.uz

strategiyasini amalga oshirishirib kelinmoqda. Toshkentda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti tashkil etilganligi ham bu ishlarning isbotidir.

Shu jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining/ bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan majlisda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2025-yilni "Atrof- asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" deb e'lon qilishni taklif qilgan edi. Bundan ham shuni anglash mumkinki, yurtimizda bundan keyin ham tabiatni muhofaza qilish, Orol muammosi bo'yicha samarali yechimlar ustida islohotlar yanada jadallashadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish har bir davlatning ichki va tashqi siyosatida asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Xalqaro maydonda yuz berayotgan tabiiy ofatlar, qurg'oqchiliklar, mintaqamizdagi eng katta fojia bo'lgan Orol muammosi biologik muvozanatning o'zgarishiga, inson salomatligiga hamda shu kabi salbiy oqibatlarini keltirib chiqarmoqda. Bu muammo faqatgina bitta insonning yoki aynan bir davlatning muammosi emas. Zero, atrof-muhitni asrash har bir insonga bog'liqdir. Shunday ekan, buning uchun har birimiz birlashib, tabiatimizni himoya qilishimiz, kelgusi avlod uchun sog'lom ekologik muhitni yaratishimiz zarur.

REFERENCES

1. Karimov I. A. "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. //Xalq so'zi. 2014 yil 30 oktyabr.
2. O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risidagi Milliy ma'ruza // O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi. – Toshkent: Chinor ENK, 2013.
3. Ekologiya huquqi. O'quv qo'llanma. H.I.To'xtashev. – T.: TDYU nashriyoti. "Lesson Press" nashriyoti, 2022-y. – 372-b
4. Measuring Countries' Cooperation Within the International Climate Change Regime', 30 Environmental Science and Policy (2008) . . .
5. Principles of International Environmental Law/ Philippe Sands, Jacqueline Peel, Adriana Fabra and Ruth MacKenzie 2012

Internet saytlar:

6. www.lex.uz

7. <https://www.ungeneva.org/en/about/topics/environment>
8. [Orol muammosi, olam muammosi...](#)
9. <https://senat.uz/post/post-1303>